

Chingiz Aytmatov 90 yillik yubileyiga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi



2018-yil 16-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Respublika madaniyat va ma'rifat markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi bilan hamkorlikda buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligiga bag'ishlangan "Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti" mavzusidagi ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

raisi Sirojiddin Sayyid, FA akademiklari To'ra Mirzayev, Baxtiyor Nazarov, Akmal Saidovlar, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi yetakchi olimlari, shuningdek, Institut jamoasi qatnashdi. Chingiz Aytmatov nafaqat qirg'iz eli, balki, butun turkiy mamlakatlar, jumladan, o'zbek xalqi uchun ham aziz va qadrlı siymo edi. Chingiz Aytmatov mintaqamiz tinchligi va osoyishtaligi, uning kelajagi va ravnaqi, xalqlarimiz o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash yo'lida fidokorona faoliyat olib borgan. Ushbu ilmiy konferensiyada Chingiz Aytmatovning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, umuman, o'zbek-qirg'iz adabiyotidagi o'zaro uzviyligi, hamkorligi masalalari bo'yicha ma'ruzalar tinglandi.